

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIIY MARKAZI

F.ABDULLAYEV

***ONA TILI VA ADABIYOT FANI BO'YICHA
O'QUV-IJODIIY TOPSHIRIQLAR***



Samarqand – 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIIY MARKAZI**

F.ABDULLAYEV

**ONA TILI VA ADABIYOT FANI BO'YICHA
O'QUV-IJODIY TOPSHIRIQLAR**

Samarqand – 2021

F.Abdullayev. Ona tili va adabiyot fani bo'yicha o'quv-ijodiy topshiriqlar. Umumta'lim maktablari ona tili va adabiyot o'qituvchilari hamda malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun uslubiy ko'rsatma. - Samarqand, 2021. 20 bet.

Mas'ul muharrir:

S.Yuldasheva - Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi tillarni o'qitish metodikasi kafedra mudiri

Taqrizchi:

M.Xolova

Sam DU phd, dotsent

Mazkur uslubiy ko'rsatma umuta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'qituvchilariga va malaka oshirish kursi tinglovchilariga mo'ljallangan bo'lib, til o'rganish ko'nikmalarini oshirish maqsadida usullardan foydalanilgan.

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi ilmiy-uslubiy kengashining 2021-yil 30-oktabrdagi bo'lib o'tgan yig'ilishida muhokama etilgan va 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Uzluksiz ta'lim tizimida ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish zamonaviy metodlarsiz amalga oshmaydi. Zamonaviy metodlarning eng asosiylari sifatida quyidagi metodlar e'tirof etilgan: modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, interfaol metod texnologiyasi, didaktik o'yinlar texnologiyasi va sinov darslari. Bular innovatsion metodlardir.

Ta'lim jarayonida ijodiy topshiriqlar hamda didaktik o'yinlarni qo'llash vositasida o'quvchilarda faol harakat va qiziqish uyg'otiladi. Ta'lim jarayoni, uni rivojlantirish va o'zgartirish o'qituvchi va sinf o'quvchilarining o'zaro ochiq muloqoti va ishonchi muhitida samarali bo'ladi. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan o'yinlar qisqa vaqtga mo'ljallangan bo'lib, guruh bo'lib mashq qilishga odatlantiradi, oldindan tayyorgarlikni talab etmaydi.

Ona tili va adabiyot fanida ijodiy topshiriqlarning o'rne

Ona tili va adabiyot fanidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirish, o'z fikrini, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning ahloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozim.

O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, o'quvchilarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda.

An'anaviy yo'nalishdagi dars didaktik maqsadiga ko'ra: yangi bilimlarni o'zlashtirish; o'rgatilgan bilimlarni amaliy tatbiq etish orqali mustahkamlash; o'tilganlarni takrorlash; bilim va malakalarni mustahkamlash; o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash; ularni bir tizimga keltirish kabi turlarga ega ekanligi pedagogika fanidan yaxshi ma'lum. Ammo bashariyatning iqtisodiy-ijtimoiy ravnaqi, ilmu fan sohalaridagi yangi-yangi yutuqlar ta'limning asosiy vositasi bo'lgan dars (mashg'ulot) va uning turlarining ko'payishiga, takomillashuviga olib keldi.

Ona tili darslarida musobaqa mashqlarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara-muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir.

Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Musobaqa darslari uchun mavzular:

"Qiziqarli alifbo", "So'zdan gaplar yasang", "Nutq tovushlari musobaqasi", "Zakovat" darslari va hakazolar.

Bahs – munozara darslari musobaqa darslaridan yechib ulgurmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq xukm va muxtasar xulosalar chiqarishi bilan farqlanadi.

Bahs – munozara o'quvchilardan hushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida va o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi.

O'zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs - munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o'z "men"ini anglab etadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy –ijobiy tafakkuri ko'lamini, haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida, o'zi mustaqil huloa chiqaradi. O'z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o'rgatadi.

Bahs – munozara darslari ilg'or va qiziquvchan o'quvchilar bilan birga past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ham tashkil qilinsa, dars samarasi oshadi, o'quvchida nutqiy madaniyat shakllanadi.

Dars mashg'ulotlarini rang – barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, do'stlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'quvchi darsda o'zini erkin his qiladi, mashg'ulotlarga qiziqishi, so'z san'ati bilan shug'ullanishga hamda ijodga rag'batini ortadi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta'lim metodlarini tanlash nimalarga bog'liq, degan masaladir.

Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

- birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;
- ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning harakteriga bog'liq;
- uchinchidan, ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;
- to'rtinchidan, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;
- beshinchidan, oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq;
- oltinchidan, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;
- yettinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

Ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni o'qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko'pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik o'yinlarning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Ona tili va adabiyot fani bo'yicha topshiriqlar

Quyida darsda foydalaniladigan tarqatma materiallar misol tariqasida keltiriladi: Ona tili fanidan “Ko‘chirma gap” mavzusini takrorlash va mustahkamlashda qo‘llash mumkin.

“Tushunchalar tahlili” (O‘quvchi varianti)

Tushunchalar	Mazmuni
Fonetika	
Leksikologiya	
Morfologiya	
Sintaksis	
Punktuatsiya	
Orfografiya	
Orfoepiya	

(O‘qituvchi varianti)

Tushunchalar	Mazmuni
Fonetika	Tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi va tasnifini o‘rganadigan bo‘limi.
Leksikologiya	Tilshunoslikning so‘z va uning leksik ma‘nosini, so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rganadigan bo‘limi.
Morfologiya	Tilshunoslikning so‘z turkumlari va ularga xos xususiyatlarni o‘rganadigan bo‘limi.
Sintaksis	Tilshunoslikning so‘z birikmasi, gap, uning tuzilishi va ma‘nosiga ko‘ra turlarini o‘rganadigan bo‘limi.
Punktuatsiya	Tilshunoslikning tinish belgilari va ularning qo‘llanilishini o‘rganadigan bo‘limi.
Orfografiya	Tilshunoslikning so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi qonun-qoidalarini o‘rganadigan bo‘limi.
Orfoepiya	Tilshunoslikning so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz me‘yorlarini o‘rganadigan bo‘limi.

Lirikaning janrlari haqida ma'lumot (O'quvchi varianti)

Tushunchalar	Mazmuni
G'azal	
Ruboiy	
Tuyuq	
Qit'a	
Fard	
Masnaviy	
Murabba'	
Muxammas	
Musaddas	
Musamman	

(O'qituvchi varianti)

Tushunchalar	Mazmuni
G'azal	Arabcha so'z, "ayol kishiga xushomad qilmoq" ma'nosini ifodalaydi.
Ruboiy	"To'rtlik" ma'nosini anglatadi
Tuyuq	Turkiy so'z, "tuymoq, chigallashtirmoq" ma'nolarini anglatadi
Qit'a	Arabcha so'z, "bo'lak, qism" ma'nosini anglatadi
Fard	Fors-tojikcha so'z, "yakka, yolg'iz" degan ma'noni anglatadi.
Masnaviy	Arabcha – "ikkilik", Har bandi 2 misradan iborat she'r shakli.
Murabba'	Arabcha – "to'rtlik", har bandi 4 misradan iborat she'r shakli.
Muxammas	Arabcha – "beshlik", har bandi 5 misradan iborat she'r shakli.
Musaddas	Arabcha – "oltilik", har bandi 6 misradan iborat she'r shakli.
Musamman	Arabcha – "sakkizlik", har bandi 8 misradan iborat she'r shakli.

“Anogramma” mashqi

Bunda o'quvchiga berilayotgan so'zlar faqat biror hodisa, mavzu asosida yoki boshqa biror jihatlari bilan umumiy xususiyatga ega bo'lib, ular ichida faqat bittasi “begona” bo'ladi. O'quvchi ana shu so'zni aniqlay olishi va javobini izohlay olishi kerak.

Anogrammaga misollar:

1. Kishilik, o'zlik, gumon, ko'rsatish, belgilash, holat.

Javob: Holat so'zi, chunki berilgan misollar olmoshning ma'no turlari bo'yicha. Holat olmoshning turiga kirmaydi

2. To'ldiruvchi, aniqlovchi, ega, kesim, ravish, hol.

Javob: ravish so'zi, chunki u gap bo'lagi emas.

3. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, sifatdash.

Javob: sifatdash so'zi, chunki u mustaqil so'z turkumiga kirmaydi.

4. Suvchi, gulshi, bog', bog'bon, o'qituvchi, shifokor, huquqshunos, qo'shiqchi.

Javob: bog' so'zi, chunki u shaxs oti emas.

5. Buxoro, Toshkent, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Qoraqalpog'iston, Xorazm.

Javob: Qoraqalpog'iston so'zi, chunki u viloyat hisoblanmaydi,

6. O'zbek, tukman, qoraqalpoq, qozoq, qirgiz, uyg'ur, tatar va tojik tillari.

Javob: Tojik tili turkiy tillar oilasiga kirmaydi.

7. Ammo, lekin, chunki, shuning uchun, agar, va, chunki, uchun, zero, shu bois.

Javob: uchun so'zi bog'lovchi emas, ko'makchi.

8. Nuqta, so'roq belgisi, tire, qo'shtirnoq, qavs, ikki nuqta, defis, undov belgisi, nuqtali vergul.

Javob: defis tinish belgisi hisoblanmaydi,

9. “Mehrobdan chayon”, “O'tgan kunlar”, “Uloqda”, “Dahshat”, “Juvonboz”, “Kalvak Maxsumning xotira daftaridan”, “Toshpo'lat tajang nima deydi?”.

Javob: “Dahshat” hikoyasi A.Qodiriy qalamiga mansub emas.

10. “Munshaot”, “Vaqfiya”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Navodir un-nihoya”, “Tazkirat ush-shuaro”, “Xamsa”.

Javob: “Tazkirat ush-shuaro” asari A.Navoiy qalamiga mansub emas.

11. Tazod, tashbih, intoq, iqtibos, musamman, tajnis, ishtiyoq.

Javob: musamman so'zi, chunki u she'riy san'at hisoblanmaydi.

12. G'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, masnaviy, muvashshah, murabba'

Javob: muvashshah so'zi, chunki u she'riy janr hisoblanmaydi.

“Mozaika” metodi

“Mozaika” so'zining ma'nosi “bo'laklardan yig'ib butun hosil qilish” dir. Bu usuldan foydalanish uchun oldindan kartochkalarga so'zlar yozilishi kerak. O'quvchi so'zlar ketma-ketligini topib, joyiga qo'yib gap yasashi lozim. Har bir qoida yoki fikr yozilgan kartochkalar alohida konvertida saqlanishi lozim. Rasmlarni ham qirqib bo'laklab qo'yilsa, o'quvchi yig'ib rasm haqida gapiradi. Guruhlarni ham mozaika metodidan foydalanib tashkil etish mumkin.

“Sinkveyn” metodi

“Sinkveyn” fransuzcha so'z bo'lib, "besh qator" degan ma'noni bildiradi, ya'ni “besh qatorli qofiyasiz she'r”.

1. Ot (1 so'z)

2. Sifat (2 so'z)

3. Fe'l (3 so'z)

4. Ibora, Tasviriyl ifoda (gap bilan ta'rifi beriladi)

5. Sinonimi (1 so'z yoziladi,

1-qatorda yozilgan so'z bilan ma'nosi bir xil bo'lsin).

“Sinkveyn” metodiga misollar:

1. Maqol.

2. Ibratli, nasihatombuz.

3. O'rgatadi, tarbiyalaydi, nutqni bezaydi.

4. Xalq hikmatlarining qaymog'i hisoblanadi.

5. Ibrat.

1. So'z.

2. Ta'sirchan, jozibador.

3. Ruhlantiradi, hayot baxsh etadi, hayotga muhabbatni so'ndiradi.

4. Ma'dani inson guhari so'zdurur.

5. Kalom.

1. Suv.
2. Shifobaxsh, tiniq.
3. Hayot bag'ishlaydi, ko'rk beradi, yashnatadi.
4. Tabiatning bebaho va mo'jizakor ne'mati –
5. Obi hayot.

1. Kitob.
2. Qiziqarli, mazmunli.
3. Bilim beradi, ma'naviy ozuqa beradi, dunyoqarashni kengaytiradi.
4. Har bir insonga ziyo ulashguvchi –
5. Oftob.

“Zinama-zina” texnologiyasi

“Zinama-zina” texnologiyasining tavsifi: ushbu mashg'ulot o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

“Zinama-zina” texnologiyasining maqsadi: O'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanilishi: Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarda yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida ham qo'llash mumkin.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- Mavzular soniga ko'ra o'quvchilar 3-5 kichik guruhlarga ajratiladi.
- Mashg'ulot maqsadi va uni o'tkazish tartibi tushuntiriladi.
- Har bir guruhga qog'ozning chap tomonida kichik mavzu yozilgan varaqlar tarqatiladi.

- O'quvchilarning kichik mavzu bo'yicha fikrlarini qog'ozning o'ng tomoniga yozish uchun vaqt belgilanadi.
- Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, ketma-ketlik asosida guruh vakillari o'z ishlarini taqdimot qiladilar.
- Tayyorlangan ishlar doskada ketma-ketlikda(tagma-tag), ya'ni zina shaklida ilib qo'yiladi.
- O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh beradi, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Belgilangan vaqt (5-6 daqiqa) tugashi bilan barcha guruhlar o'z ishini yakunlaydi va har bir guruhdan taqdimotchilar chiqib, 1-guruhdan boshlab guruh ishini taqdimot qiladi. Taqdimot uchun ham 2 yoki 3 daqiqa vaqt belgilanadi. Guruh ishlari doskaga tagma-tag ilinadi. O'qituvchi guruhlar ishini umumlashtirib, xulosalaydi va eng faol guruhlar rag'batlantiriladi.

“Muammo” texnologiyasi

“Muammo” texnologiyaning maqsadi: O'quvchilarni turli muammoli masalalar, vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammolarni yechishda uslublarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish, muammoning kelib chiqish sabablari, muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishdan iborat bo'ladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari

Omonim so'zlarning ma'nosini aniqlang.

Sham yanglig' yonadur boshimda o't,
Ko'z yoshimdin yer yuzida undi o't.
Qon yoshim qildi yo'lingni lolazor,
Muncha taqsiz ayladim, qonimdan o't.(Navoiy)

Taqdiringni qo'ling bilan yoz,
Mening bilan qishni qilgin yoz.
Erkinlikning osmonida uch,
Maqsad sari qanotingni yoz.(H.Nuriy)

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur,
Men vafosi va'dasidin shodmen,
Ul vafo, bilamanki, qilmas yo qilur.(Navoiy)

Ulki ko'zi g'izoli Chindurur,
Qoshida payvasta oning chindurur,
Chunki ko'p yolg'on aytdi ul manga,
Gar desam yolg'onchi oni chin durur.(Bobur)

Bodasiz betobmen bu kecha men,
La'ling istab endi jondin kechamen,
Sohili maqsadg'a yetkaymanmu, deb,
Ko'z yoshim daryosida suv kechamen.(Muqumiy)

Paronimlar

Ahli suhanlar ko'p juda,
Lek bahsi mazmundin judo,
Bunday ravonlik behuda,
Nutqing ravon bo'lsin, bolam.(I.Nazarov)

Quyidagi askiyada *kul* so'zining ma'nolarini aytib bering.

Usta Akbar: - Olimjon akam hech narsadan hech narsa yo'q, uy eshigidan meni chiqarib, *kul, kul* deydilar.

Shokir ota:- Usta akbar, darrov Olimjonni uyga olib borib, oldiga ikkita patir sindirmaysizmi? *Kulchalik* qadri yo'qmi?

Komil ota: - Shunaqa qilsangiz, nimangiz ketardi? Usta Akbar, lovuullab turgan cho'g' edingiz, mana, *kulki*, bo'ldingiz.

Tursunbuva: - Yo'q, unaqa demandlar. Ikki og'iz gap bilan usta Akbarni *kul-kul* qilib yubormanglar.

Qodirjon aka: - Ayb Olimjon akada. Bo'lmasa *kul* – *kullab* turgan odamning oldiga borib: kul parcha qilib yuboraman, deyishi to'g'rimi?

Antonimlar.

Charxi kajraftorning bir shevasidan dog'man,
Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadir.(Furqat)

Kunduzni tun deb o'ylab, saharda keldi o'g'ri,
Ko'rshapalak oxiri otashga keldi to'g'ri.
Dushmanning tepasidan yozib po'lat qulochin,
Kalxat bilan olishgay osmanda zo'r lochin.

Yaxshi topib so'zlar, yomon qopib so'zlar. Dono so'ziga bino qo'yadi,
nodon – o'ziga.

Sinonimlar.

Gulxhanda gullarni tebratar sabo, Adashgan yo'lchiday daydib yurar
yel.()

Ona tili darslarida qo'llaniladigan o'yinlar sharhi

1. "Limerik" o'yini. Sinf doskasiga limerik osib qo'yiladi. Har bir ijodiy guruhdan bittadan vakil limerikning 2-3 satrini tanlab oladi. Vazifa: tanlab olingan satrlar mazmuniga moslab, she'riy matn tuzishni davom ettirish.

Vazifani bajarish uchun 10 minut vaqt beriladi. So'ngra har bir guruhdan bir kishi taqdimotga chiqadi. O'yin so'ngida o'qituvchi bajarilgan ishlarni sharhlaydi.

Ona tili darslarida "Til va jamiyat" mavzusini o'rganish uchun quyidagi

topshiriqlarni berish mumkin:

1. Nutq odobi haqidagi maqollar, matallar va hadislarini eslang, qog'ozga yozing.

2. Har bir ijodiy guruh vakillari taqdimotida faol qatnashing.

3. Taqdimot davomida yangi topilgan eng ma'qul maqol, matal, hikmatli so'z va hadislarini doskaga yozib bering va sharhlang.

4. Taqdimot davomida tilning ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyati haqidagi o'z

fikrlaringiz bilan o'rtoqlashing.

O'yin o'qituvchining sharhi bilan yakunlanadi.

2. "Til xazinasiga sayohat" o'yini. Darsda o'rganilayotgan mavzu xazinada yashiringan boylik deb e'lon qilinadi.

Kichik ijodiy guruhlar a'zolari yangi mavzuga doir o'zlari va o'rtoqlarida mavjud bo'lgan tasavvurlar bilan o'rtoqlashadilar. Har bir qatnashchi o'z oldidagi qog'ozga o'rtoqlaridan bilib olgan yangi ma'lumotlarni yozib boradi. Eng muhim ma'lumotlar doskaga yozib boriladi va natijada xazina sirlari oydinlasha boradi.

3. "O'zligingni angla" o'yini. Bu o'yin o'quvchilarni o'zligini anglashga, o'zi haqida o'zgalarga so'zlab berishga, sinf o'quvchilarini noverbal muloqotga o'rgatadi. Chorak oxirida takrorlash darslarida o'tkazish mumkin. O'yin uchun 20 minut vaqt ajratiladi.

O'yinni o'tkazish uchun tavsiyalar:

1. O'yin ishtirokchilari bir varaqdan qog'oz, markerlar va to'g'nog'ich oladilar.

10 minut davomida quyidagilarni bajarishlari kerak:

a) qatnashchilar o'zlarining avtoportretlarini o'rtoqlik hazili tarzida chizadilar;

b) o'zlarining eng xarakterli sifatlarini yozadilar, masalan: "Men tirishqoqman", "Men sabrsizman" kabi;

2. O'yin ishtirokchilari o'zlari tayyorlagan qog'ozni o'z ko'kraklariga to'g'nab oladilar.

3. Qolgan vaqtda ishtirokchilar gapirmasdan (noverbal muloqot) bir-birlarini o'rganadilar.

4. Tanishuv tugagach, o'z o'rinlariga qaytib bir-birlariga savol beradilar.

5. O'qituvchi o'quvchilar bilan o'zlikni anglash jarayonini muhokama qiladi.

O'yinning ikkinchi variantida "Men qanday bo'lmoqchiman?" savolini qo'yish mumkin. O'yin qatnashchilari o'zlari haqidagi ma'lumotlarni to'ldirib beradilar. "Noverbal aloqa" ichki nutqni o'stiradi, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, o'zligini tanqidiy va ob'ektiv mulohaza qilishga, o'rtoqlarining xarakter-xususiyatlarini o'rganishga da'vat etadi.

4. "O'z xotiralari bilan o'rtoqlashish" o'yini

O'yinni o'tkazishdan asosiy maqsad:

1. Sinfda o'quvchilarning o'zaro hamkorligini, o'zaro ishonch muhitini ta'minlaydi.

2. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

3. Sinf o'quvchilariga bir-birlarini yaxshi anglash uchun sharoit tug'diradi.

Kichik guruhlardagi o'quvchilar soni 10-12 tadan oshmasligi kerak. O'yinga 10 minutgacha vaqt ajratiladi.

5-sinf o'zbek tili darslarida bu o'yin o'tkazilganda o'quvchilardan 5 yil oldin maktabga ilk qadam qo'ygan kunlarini xotirlash so'raladi. Xotirlash jarayoni dastlab noverbal bajariladi (ichki nutq). So'ngra xotiralar og'zaki bayon etiladi.

Mazkur o'yin o'quvchilar xotirasini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlash va bog'lanishli og'zaki nutq ko'nikmalarini o'stiradi. Xotirlash jarayoniga turtki bo'ladigan manbalardan (rasm, "Alifbe" kitobi, qo'ng'iroq) foydalanish mumkin.

5. "Tinglang va xulosa chiqaring" o'yini. Bu o'yin bog'lovchi zveno vazifasini bajaradigan o'yinlardan bo'lib, bir mavzudan ikkinchi mavzuga "yengil" o'tish imkoniyatini tug'diradi. Yangi mavzuga

muqaddima, turli tushunchalarni o'zaro bog'lovchi "ko'prik" vazifasini o'taydi.

O'yinni o'tkazishdan maqsadlar:

1. Sinf o'quvchilarining diqqatini koordinatsiya qilish.
2. O'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga jalb etish.
3. Yangi mavzu taqdimotida o'zaro qanday muloqotga kirishish va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantirish.

O'yin uchun 15 minut vaqt ajratiladi. O'yinni o'tkazish uchun tavsiyalar:

1. O'zbek tili o'qituvchisi sinf o'quvchilariga quyidagi topshiriqni beradi:

Boshqa ijodiy guruhlardan o'zingizga ikki nafar sherik tanlang. 3 kishi bo'lib, o'zlaringizga ma'qul rang tanlang. Masalan, O'zbekiston Respublikasining bayrog'idagi ranglardan: zangor, qizil, oq, moviy.

2. Kichik ijodiy guruhlarning har biri boshqalarga nimalar to'g'risida so'zlab berish mumkinligini maslahatlashadilar, ona tili darslarida yaqin orada o'rgatilgan mavzulardan birini tanlaydilar ("Til va jamiyat", "So'z tarkibi", "Kesim", "Sodda yig'iq gap", "Gap qoliplari", "So'z birikmalari", "Uyushiq bo'laklar", "Undalma", "Qo'shma gap", "Ko'chirma gap" kabi).

3. O'ylash uchun 2 minut vaqt beriladi.

4. Taqdimotda har bir ijodiy guruh o'zi tanlagan mavzu bo'yicha boshqalarga ma'lumot beradi. 3 ta qatnashchi bir-birini to'ldiradi. Taqdimot uchun 2 minutdan vaqt ajratiladi. O'qituvchi vaqtni kuzatib turadi.

5. Boshqa guruh a'zolari eshitganlari haqida xulosa chiqarib beradilar. Bu o'yindagi so'nggi halqa bo'lib, xulosalarga alohida ahamiyat beriladi.

Yuqoridagi o'yin vositasida o'tilgan mavzularni takrorlash yengillashadi. O'quvchilarda oz vaqt ichida mavjud bilimlar yuzasidan mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasi shakllanadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni o'stirishdagi muhim omildir. Boshlang'ich ta'limda ona tili darslari misolida olib ko'rganimizda, darslikdagi I bo'lim ("Muqaddima") o'rganilgach, II bo'limga o'tishdan oldin yuqoridagi o'yinni o'tkazish mumkin.

6. “Berilgan mavzu (jumla) asosida muzokaraga kirishish” o’yini.

O’yinni o’tkazishdan maqsad:

Sinfda musobaqa ruhini o’stirish; o’zaro fikr almashishga o’rgatish.

1. O’quvchilarning bog’lanishli og’zaki va yozma nutq ko’nikmalarini o’stirish.

2. Taqdimotlarda o’quvchilarning nutq madaniyati asoslarini egallashlariga erishish.

O’yin uchun 20 minut vaqt ajratiladi. Mazkur o’yinni yakunlovchi mashg’ulotlarda, yozma ishga tayyorgarliklar oldidan o’tkazish mumkin.

O’yinni o’tkazish uchun tavsiyalar:

1. Sinf o’quvchilari davra qurib o’tiradilar. O’qituvchi lenta shaklida qir qilgan qog’ozlarga yozilgan mavzular (jumlalar)ni tarqatadi.

2. O’quvchilar tanlagan mavzulari (jumlalar) asosida bog’li matn tuzadilar (yozma).

3. Taqdimotga (og’zaki) 2 minut vaqt beriladi.

4. O’qituvchi o’yin natijalarini sharhlab yakunlaydi.

O’quvchilarga tavsiya etilishi mumkin bo’lgan mavzular (jumlalar) namunasi:

1. Do’st bo’lish bu...

2. Raqobat – bu...

3. Mening maktab hayotiga doir ilk xotiralarim.

4. Mening birinchi o’qituvchim.

5. Men sevgan bolalar shoiri (yozuvchisi).

6. Mening sevimli kitobim.

7. She’riyat men uchun...

8. Kitob men uchun...

9. Kompyuter – bu...

10. Sport mening hayotimda.

11. O’zbek xalq milliy bayramlari.

12. O’zbek xalq bolalar o’yinlari.

13. O’zbek xalq bolalar og’zaki ijodi.

14. Kattalarga munosabatim.

15. Mening kelajakdagi orzularim.

16. Men sevgan kasb.

17. Mening sevimli mashg'ulotim.

18. Bo'sh vaqtimni qanday o'tkazaman?

Dars o'tish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligiga, eng muhimi, o'quvchilar mustaqil fikrining shakllanishiga xizmat qilayotganligi kuzatilmoqda. Dars jarayonida turli xil o'yinlardan foydalanish orqali ham o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga va ta'lim samaradorligiga erishadi, shu bilan o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi. Didaktik o'yinlar darsda barcha o'quvchilarni faol bo'lishga undaydi.

Xulosa

Zamonaviy didaktika jadal rivojlanib, o'zgarayotgan jamiyatning talablari va ta'limdagi amaliy ishlanmalarni aks ettiruvchi yangi yondashuvlar, ta'lim berish texnologiyalari bilan boyimoqda.

Ta'lim berishning nazariyasi va amaliyotida o'quvchilarning bilim olish harakatlarini faollashtirish eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan. Keyingi vaqtlarda pedagoglarning diqqati bilim orttirishning muloqot yuritish shakliga asoslangan o'qitishning interfaol shakl va uslublarini o'zlashtirishga qaratilgan.

Ta'lim olish jarayonining barcha ishtirokchilarining muloqot, kooperatsiya va hamkorlik qilishiga asoslangan bilim berishning interfaol tartibi qo'llanilganda, yuqorida keltirilgan talablarning deyarli barchasiga amal qilinadi.

Ta'lim jarayoniga didaktik o'yinlarni olib kirish darslarni jonli va qiziqarli bo'lishiga katta yordam beradi. O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlari, dars jarayonidagi ishtiroklari, faolligi ortadi. O'quvchilar ijodiy tafakkurining o'sishida, xotirasining rivojlanishida, ularni tushuncha va hodisalarga sezgirlik bilan munosabatda bshlishlarida, hozirjavoblikka o'rganishlarida ham didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. Hozirda ta'lim jarayoniga yangidan-yangi o'yinlar kirib kelmoqda Biz o'yinlarning yangilik xususiyatidan kelib chiqib ularni innovatsion o'yinlar deb nomlayapmiz. O'yinlar turli maqsadlarda, ta'lim jarayonining turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin. O'yinni qo'llashdan asosiy maqsad o'quvchilarda imloviy malakalarni shakllantirish, ularni hodisalarga e'tibor bilan qarashga, tanqidiy fikrlashga o'rgatishdan iborat.

O'quvchilar shakldosh so'zlarni o'rganib, unga doir mashqlar bajaradilar. Shunday so'zlar ishtirokida gaplar tuzadilar, matndan ularni aniqlaydilar. Ularni shakldosh so'zlarni qanday o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida mazkur o'yin o'tkaziladi. O'quvchilarga shakldosh so'zlarning ma'nolari berilgan kartochkalar tarqatiladi. Ular qaysi shakldosh so'zning ma'nosi xato izohlanganligini aniqlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Isamitdinov S. Ta'lim jarayonida innovatsion usullardan foydalanish. Toshkent, 2005 – 16 bet.
2. Po'latov I.P., Odilov S. O'zbek tili ta'limidagi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar (ilmiy-uslubiy qo'llanma). Qo'qon, 2004 – 39 bet.
3. Po'latov I.P., Umarov J. Ona tili darslarida innovatsion metodlardan foydalanish (ilmiy-uslubiy qo'llanma). Qo'qon, 2005 – 22 bet.
4. Po'latov I. Ona tili ta'limida innovatsion o'yinlar. //Pedagogik ta'lim (ilmiy nazariy va metodik jurnal) Toshkent, Nizomiy nomidagi ToshDPU, 2005-yil, №2. – 71-75-betlar.
5. Xolnazarov N. Innovatsion usullar. //Farg'ona ziyosi (ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr) Farg'ona, 2005-yil, №4 – 8-9-betlar.
6. Po'latov I.P., Odilov S.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida innovatsion o'yinlar. (ilmiy-uslubiy qo'llanma). Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 2005-yil. – 24 bet.
7. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2012-yil. – 96 bet.

Elektron ta'lim resurslari

8. Internet materiallari. www.google.uz
9. Internet materiallari. www.google.com
10. Internet materiallari. www.geografiya.uz
11. Internet materiallari www.ziyouz.com kutubxonasi
12. Internet materiallari. www.wikipedia.org

MUNDARIJA

I. Kirish.....	3
Ona tili va adabiyot fanida ijodiy topshiriqlar.....	5
Ona tili darslarida qo'llaniladigan o'yinlar sharhi.....	15
Xulosa.....	20
Foydalanilgan adabiyotlar.....	21

F.Abdullayev.

ONA TILI VA ADABIYOT FANI BO'YICHA O'QUV-IJODIY
TOPSHIRIQLAR

(Umumta'lim maktablari ona tili o'qituvchilari hamda malaka
oshirish kursi tinglovchilari uchun uslubiy ko'rsatma).

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 20.10.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 29.10.2021 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

« Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.

1,5 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma № 36/21

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.

